



COMPARATIVE ANALYSIS OF AZ-ZAMAKHSHARI'S "NUKAT AL-I'RAB" AND AL-AKHFASH AL-AWSAT'S "MA'ANI AL-QUR'AN"

Farida Abzalova

Base doctorate

International Islamic Academy of Uzbekistan

faridaabzalova96@gmail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Zamakhsharī, al-Akhfash al-Avsat, Nukat al-I'rāb, Ma'ānī al-Qur'ān, comparative analysis, Qur'ānic interpretation.

Received: 22.08.25

Accepted: 23.08.25

Published: 24.08.25

Abstract: This article is devoted to a comparative analysis of Mahmud al-Zamakhsharī's Nukat al-I'rāb and al-Akhfash al-Awsat's Ma'ānī al-Qur'ān. In addition to providing information on these works, the author identifies both the similarities and the differences in the exegetical approaches employed by the two scholars in their interpretation of Qur'ānic verses.

AZ-ZAMAXSHARIYNING "NUKATU-L-E'ROB" VA AL-AXFASH AL-AVSATNING "MAONIYI-L-QUR'ON" ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Farida Abzalova

Tayanch doktorant

O'zbekistom xalqaro islomshunoslik akademiyasi

faridaabzalova96@gmail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Az-Zamaxshariy, Axfash al-Avsat, Nukatu-l-i'rob, Maoniy al-Qur'an, qiyosiy tahlil, Qur'on sharhi.

Annotatsiya: Mazkur maqola Mahmud Zamaxshariyning "Nukatu-l-i'rob" va Al-Axfash al-Avsatning "Maoniy al-Qur'an" asarlarining qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi. Maqola muallifi bu ikki asar haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda, ularning Qur'on oyatlarini sharhlashdagi uslubiy o'xshash va farqli jihatlarini ham ochib bergan.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЗ-ЗАМАХШАРИ «НУКАТУ-Л-И'РОБ» И АЛЬ-АХФАША АЛЬ-АУСАТА «МАОНИИ-ЛЬ-КУРЪАН»

Фарида Абзалова

базовый докторант

Международная исламоведческая академия Узбекистана

faridaabzalova96@gmail.ru

Ташкент, Ўзбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Замахшари, Ахфаш аль-Авсат, Нукат аль-и'раб, Ма'ани аль-Куръан, сравнительный анализ, толкование Корана.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному анализу труда Махмуда Замахшари «Нукат аль-и'раб» и сочинения аль-Ахфаша аль-Авсата «Ма'ани аль-Куръан». Автор статьи не только рассматривает сведения об этих произведениях, но и выявляет сходные и отличительные черты в методах толкования аятов, применяемых обоими учёными.

Kirish. Mahmud Zamaxshariy tirikligidayoq favqulodda iste'dodi, yuksak ilmiy salohiyati bilan mag'rib va mashriqdagi zamondoshlarining hurmat-e'tiborini qozongan benazir inson edi. Dunyoning biron-bir olimiga nasib etib ulgurmagan “Ustoz ud-dunyo” (“Butun dunyoning ustoz”), “Ustoz ul-arab val-ajam” (“Arablar va g'ayri arablar ustoz”), “Faxru Xavorazm” (“Xorazmning faxri”), “Ka'bat ul-adab” (“Adab ahli uchun bamisoli Ka'ba”), “Jorulloh” (“Allohning qo'shnisi”) unvonlari bilan sharaflangan qomusiy olimdir[1].

Asosiy qism. Az-Zamaxshariy asarlari soni turli manbalarda turlicha berilsada oxirgi tadqiqotlar ularning sonini 90 dan ortiq deb ko'rsatadi. S. Saidjalolov “Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masoiil” asarida hanafiy mazhabi talqini” mavzusidagi tarix fanlari falsafa doktori (PHD) darajasini olish uchun yozgan avtoreferatida allomaning 91 ta asari borligini qayd etadi[2]. Afsuski, fanning turli sohalariga oid bu asarlarning barchasi ham bizgacha yetib kelmagan.

Allomaning hayoti va faoliyatiga oid ko'plab ma'lumotlar mavjud bo'lgani uchun bu masalaga alohida to'xtalib o'tirmaymiz. Biz tadqiq etmoqchi bo'lgan asarlarimiz az-Zamaxshariyning “Nukatu-l-e'rob” va Al-Axfashning “Maoniy-l-Qur'on” asarlari bu ikki allomaning nodir ijod na'munalaridan hisoblanadi.

“Nukatu-l-e'rob” asarining to'liq nomi “Nukatu-l-i'rob fi-l-g'arib i'rob fi-l-Qur'oni-l-karim” bo'lib, unda Qur'oni karim oyatlarinig nozik jihatlari xususan, oyatdan ko'zda tutilgan asosiy masalalar batafsil bayon etiladi. Mazkur asar qo'lyozma holatda bo'lib, Zamaxshariy uni “Nukatu-l-i'rob fi g'aribi-l-i'rob” nomi bilan atagan. Tarjima va tabaqot olimlarining ba'zilar o'zlarining kitoblarida bu nomga “Fi Qur'oni-l-karim” iborasini qo'shganlar. Mazkur qo'lyozmaning yagona nusxasi Qohiradagi “Doru-l-kutub va-l-vasoiqi-l-qavmiya” kutubxonasinig qo'lyozmalar fondida 898-raqam ostida saqlanmoqda[3].

Al-Axfash haqidagi ma'lumotlarning aksar qismi arab tilida bo'lgani sababli bu olimning tarjimai holiga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Abu al-Hasan Sa'id ibn Mas'ada - Banu Mujashi ibn Darim ibn Malik ibn Hanzala ibn Zayd Manat ibn Tamim qabilasining mavlosidir. U nahv ilmida eng mashhur "Axfash"lardan[4] biri hisoblanadi. Shuning uchun nahvga oid kitoblarda "al-Axfash" degan nom bevosita zikr etilganida, odatda aynan shu shaxs nazarda tutiladi. Agar boshqa bir "Axfash" ko'zda tutilgan bo'lsa, unda maqsad qaysi biri ekanini aniqlashtirish uchun unga "al-akbar" (katta) yoki "al-asg'ar" (kichik) so'zlari qo'shilishi shart bo'ladi. Bu nahviy adabiyotlar orasida keng tarqalgan va talab etilgan qoidaga muvofiqdir[5].

Al-Axfash (vaf. 211/826) Balxda tug'ilgan, ba'zi rivoyatlarga ko'ra, uning asl vatani Xorazm bo'lgan. U ilm talabida Basraga ko'chib borgan va u yerda ko'plab mashhur ustozlardan ta'lim olgan. U Sibavayh bilan deyarli barcha ustozlardan birga dars olgan, faqat Xalil ibn Ahmad bundan mustasno. Garchi u Basrada Xalil bilan birga bo'lgan bo'lsa-da, undan biror rivoyat qilgani haqida ma'lumot yo'q. Shuningdek, Axfash Sibavayhdan undan yosh jihatidan katta bo'lishiga qaramay ilm olgan va uning nahviy bilimiga ega (ya'ni arab tili grammatikasi sohasida) eng yetuk shogirdlaridan biriga aylangan.

Axfash nahv ilminni chuqur o'zlashtirib bu ilm yuzasidan o'z qarashlariga ega bo'ldi. Ayrim masalalarda Sibavayh bilan ham bahs-munozaraga kirishadi. Uning bilimi va zakosini zamondoshlari ham e'tirof etgan.

Mubarrad Axfash haqida shunday deydi: "Axfash kalom ilmida eng bilimli va bahs-munozarada eng mohir edi"[6].

Al-axfash 215 yoki 221 h yilda Bag'dodda vafot etgan.

Asarlari:

1. "Al-Avasit fi-n-nahv" ("Navdagi o'rtacha masalalar")
2. "Maoniyi-l-Qur'an" ("Qur'on manolari")
3. "Al-Maqoyis fi-n-nahv" ("Nahvdagi mezon")
4. "Al-ishtiqoq" ("So'z yasalishi")
5. "Al-masail: al-kabir, as-sog'ir" ("Katta va kichik masalalar")
6. "Al-a'rud" ("She'riy vaznlar")
7. "Al-qovafiy" ("Qofiyalar")
8. "Al-asvat" va boshqalar ("Tovushlar") [6].

Guvohi bo'lganimizdek alloma bir necha asarlarni meros qoldirgan. Aynan "Nukatu-l-e'rob" yo'nalishda yozilgan esa "Maoniy Al-Qur'an" asaridir. Ushbu asarning yozilish sababi haqida mazkur asar yuzasidan tahqiq olib borgan Misrlik doktor Hadiy Mahmud Qiroa shunday deydi: "Axfash o'z ilmiy tadqiqotlari va qarashlarini jamoatchilikka yetkazishni istar edi. U bu

maqsadiga Qur'on matni orqali yo'l topdi — oyatlarning i'robiiy talqinida keng imkoniyatlar borligini anglab yetdi. Shunday qilib, u shu talqinlar orqali barcha nahviy (grammatik) va sarfiy (morfologik) qarashlarini bayon etdi. Agar biz al-Axfashning kitobida keltirilgan nahv va sarf masalalarini jamlab, ularni nahvga oid istalgan klassik asar tuzilishiga mos ravishda boblarga ajratsak, shubhasiz, nahv va sarfga bag'ishlangan asarlarda mavjud bo'lgan biror bob ham u tomonidan chetda qoldirilmaganini ko'ramiz. Shunday tartibda tuzilgan holda, Axfashning asari keyingi davrlarda yozilgan ko'plab nahv va sarf kitoblaridan ustun bo'lar edi.

Darhaqiqat, undan rivoyat qilingan nahviy qarashlarning ko'pligi, bu qarash va tadqiqotlarga bo'lgan katta e'tiborning ochiq dalilidir. Ularning yig'indisi Axfash qalamiga mansub to'laqonli bir nahv kitobini tashkil etadi"[7].

Zamaxshariyning "Nukatu-l-e'rob" asari bilan Axfashning "Maoniyi-l-Qur'on" asarini o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish uchun har ikkala asarda "Baqara" surasining 2 oyati qanday sharhlanganini ko'rib chiqamiz.

ذَلِكَ الْكِتَابُ لَا رَيْبَ فِيهِ هُدًى لِّلْمُتَّقِينَ

Bu kitobda shak-shubha yo'q, u taqvodorlarga hidoyatdir. (Ya'ni, Qur'oni Karim shunday kitobki, uning haqligiga hech shak-shubha yo'q. Unda hamma narsa ochiq-oydin, aniq-ravshandir.

[Baqara surasi 2-oyat]

Al-Axfash bu oyatni quyidagicha sharhlaydi:

"La royba fihi, hudal lil-muttaqin" ("unda hech qanday shubha yo'q; u taqvodorlar uchun hidoyatdir") va "fa-la isma a'layhi" ("bas, unga gunoh yo'q" "Baqara surasi 173 oyat") iboralarida "royba" va "isma" so'zlarini tanvinsiz nasb holida keltiriladi. Buning sababi shuki, har bir noaniq (nakira) ismni "la" so'zi bilan inkor qilsang va "la"ni ismning yoniga qo'ysang, u ism ochiq (fathali) bo'ladi va tanvin oladi, chunki "la" fe'lga o'xshatilgan. Xuddi shuningdek, "inna" ("darhaqiqat") va "ma"(inkor yuklamasi) ham fe'lga o'xshatilgan. Bu jumlada "fihi" uning xabari o'rnida kelgan bo'lib, xabari "raf" ("zammali") holatida bo'ladi va u "fo'il" ("ega"ga) o'xshaydi. Natijada, nasb holida kelgan ism maf'ul bih (to'g'ridan-to'g'ri to'ldiruvchi) o'rnida, "la" (inkor yuklamasi) esa fe'l o'rnida bo'ladi.

Tanvinning olib tashlanishiga kelsak, buning sababi — sen "la" va undan keyingi ismni bitta so'z sifatida qabul qilgansan. Arab tilida ikki narsa bitta so'z sifatida qabul qilinganda, mu'rab (kelishiklarda to'liq turlanadigan) bo'lmaydi, balki mabni (bir hil holatni lozim tutadigan) bo'ladi. Undagi fatha ham ismning umumiy qismi sifatida hisoblanadi va uni "g'ayr mutamakkun" (e'rob ya'ni kelishiklarda o'zgarishi jihatidan to'liq erkin bo'lmagan) qiladi. "La"dan keyingi ism nasb (fathali) holida bo'lib, "la" unda amalda bo'ladi, ya'ni uning grammatik holatini belgilaydi[8].

Zamaxshariy esa quyidagicha sharhlagan:

Agar: “Nega la rayba fihi jumlasida zarf (fihi — “unda” ya’ni o‘rin-joy holi) so‘zi “royb” (“shhubha”) so‘zidan oldin kelmadi? Xuddi Qur‘onning boshqa bir joyida: la fihi “g‘avl” (“unda mast qiluvchi ta’sir yo‘q”) degandek?” — desang, shunday javob beraman: “Buning sababi — maqsad shuki, “royb” (shubha) so‘ziga inkor harflari “la”ni bevosita ulash orqali, ushbu Kitobdan shubhani butunlay daf etish va uning haq va rost, botil va yolg‘on emasligini ta’kidlashdir. Chunki mushriklar uni yolg‘on deb atar edilar. Agar “fihi” (zarf) so‘zi oldinga chiqarilganida, ma’no uzoqlashgan bo‘lardi. Chunki bunda maqsad boshqa yo‘nalishga o‘tib, “bir boshqa kitob borki, unda shubha bor, bunda esa yo‘q” degan mazmun yuzaga kelar edi.

Xuddi “la fiha g‘avl” (“Soffat surasi” 47-oyat) iborasida bo‘lgani kabi: bu yerda maqsad — jannat sharobining dunyo sharobidan afzalligini bayon qilish, ya’ni unda dunyo sharobida uchraydigan mast qiluvchi (aqlni o‘g‘irlovchi) zarar yo‘qligini ta’kidlashdir. Go‘yo aytilmoqdaki: “Unda (jannat sharobida) boshqalaridagi bu ayb va nuqson yo‘qdir”[9].

Demak, Zamaxshariy bu oyatda balog‘at va maqsadga xizmat qiluvchi so‘z tartibining nozik jihatlarini yoritib “taqdim” (biror so‘zni oldinga o‘tkazish) va “ta’xir” (biror so‘zni kechiktirish)ning ma’no o‘zgarishiga ta’sirini asoslaydi. Axfash esa nahviy jihatdan “la royba”ning e‘roblash usulini, “royb” so‘zining nasb holini va tanvinning tushirilishini tushuntiradi. Qiyosiy tahlil qilganda bu Ikki talqin bir-birini to‘ldirishini ko‘rish mumkin. Axfash grammatik mexanizmini, Zamaxshariy esa uslubiy va ma’no qatlamlarini ochib beradi.

Al-Axfash Qur‘on oyatlaridagi i‘robiiy talqinlar orqali o‘z nahviy va sarfiy qarashlarini keng yoydi. Bu uslub keyinchalik shakllangan nahviy tafsirlar (i‘rob al-Qur‘an) an‘anasining erta na‘munalaridan biri bo‘lib, unda grammatik tahlil faqat lug‘aviy tushuntirish emas, balki mustaqil ilmiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib Axfash uslubini quyidagicha talqin qilish mumkin:

- Grammatik izohlar markaziy o‘rinda bo‘lib oyatlardagi so‘zlar tartibi, fe‘l va ism holatlari, jumla tuzilmalari haqida batafsil izoh beriladi.
- Sarfiy (mofologik) jihatlar: Fe‘llarning vaznlari, masdarlari, ism yasash usullari ham izohlanadi.
- Ma’no va i‘rob bog‘lanishi: Grammatik tahlil ma’noga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, masalan, i‘rob variantlari talqin farqlarini yuzaga keltiradi.

Zamaxshariyning uslubi esa quyidagicha:

- Zamaxshariy (vaf. 538/1144) Axfash an‘anasini davom ettirib, oyat e‘robini keng qamrovli balog‘at va uslubiy tahlil bilan birlashtiradi.
- Axfashning tahlillari asosan grammatik va sarfiy doirada bo‘lsa, Zamaxshariy ularni ma’no qatlamlariga ham chuqur bog‘laydi.

- Nukatul-i'robda e'rob variantlarining mantiqiy asoslari va Qur'onning uslubiy xususiyatlari ham tushuntiriladi, bu esa Axfashda kamroq uchraydi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Axfashning Qur'on e'roblariga bag'ishlangan ishlari keyingi e'robiiy tafsirlarning ilmiy poydevorini tashkil qilgan. Axfashning Qur'on i'roblariga oid tahlillari o'z davrida grammatik tafsir janrini mustaqil ilmiy sohaga aylantirishga katta hissa qo'shgan. U Basra nahv maktabining qat'iy qoidalarini asosida ish olib borgan bo'lib bu yondashuv keyinchalik kengroq va ko'p qirrali e'robiiy tafsirlarning shakllanishi uchun asos bo'ldi. Zamaxshariy kabi olimlar e'robiiy tafsirni kengaytirib, uni ko'p yo'nalishli ilmiy sharhga aylantirgan bo'lsalar-da, Axfashning qat'iy grammatik tahlil uslubi ularning asarlarida ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shermuhammedov P. Yaxshilar bahoru yohud Mahmud Zamaxshariy dahosi. – T: Noshir, 2010. – B 3.
2. Saidjalolov S. Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masoil” asarida hanafiy mazhabi talqini: tarix fanlari bo'yicha PhD dis. ... avtoref. – T.: O'zXIA, 2023. – B. 7.
3. Az-Zamaxshariy. Nukatu-l-i'rob fi g'aribi-l-I'rob fi Qur'ani-l-karim. Tahqiq: Dok. Muhammad Abu-l-Fotuh Sharif. Dimyat: Doru-l-maorif, -B.71 (Bundan so'ng “Nukatu-l-I'rob”)
4. Al-Axfash as-Sag'ir” laqabi aslida ko'zlari ojizroq bo'lgan kishilarga nisbatan ishlatilgan. Sa'd ibn Mas'ada “al-Axfash as-Sagi'r” deb atalgan. Chunki Abd al-Ḥamīd ibn Abd ar-Raḥmān “al-Axfash al-Akbar” sifatida mashhur bo'lgan edi. Keyinchalik Alī ibn Sulaymon paydo bo'lgach, u “al-Axfash al-Aşg'ar” (eng kichik Axfash) laqabi bilan tanildi. Shu boisdan Sa'd ibn Mas'ada “al-Axfash al-Avsat” (o'rtanchasi) deb nomlanib qoldi.
5. Dok.Saloh Ruva. An-nahvu-l-arobiy:nasha'tuhu, tatavvuruhu, madarisuhu, rijaluhu. Al-Qohira: Doru g'arib, 2003. –B.276.
6. As-Suyutiy. Bug'yatu-l-vuat fi tabaqoti-l-lug'aviyyin va-n-nuhat. Tahqiq: Abu-l-Fadl Ibrohim. Misr: Iysa-l-babiy, 1964. –B.590
7. Al-Axfashu-l-avsat. Maoniyi-l-Qur'an. Tahqiq: Huda Mahmud Qiroa. Al-Qohira: Madaniy. 1990. J.1. –B.25,26 (Bundan so'ng Maoniyi-l-Qur'an)
8. Maoniyi-l-Qur'an. –B.25.
9. Nukatu-l-I'rob. –B.92.